




QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

The top half of the cover features a background image of a business meeting. A person in a suit is visible, with a large, semi-transparent blue bar chart and a line graph overlaid on the scene. A large, stylized blue and grey arrow points upwards and to the right, crossing the horizontal boundary.

QASHQADARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2022- YIL YANVAR-FEVRAL OYLARI
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-fevral oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-fevral oyilarida viloyat korxonalari tomonidan 3083,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-fevral oyilariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 66,9 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 15,4 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 13,7 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 225,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,3 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar- fevral oylari

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- fevral oylari	2022- yil yanvar- fevral oylari	Farqi +/-
Tabiiy qumlar, ming t.	22,7	13,6	-9,1
Neft, ming t.	6,9	3,7	-3,2



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral oylari	2022- yil yanvar-fevral oylari	Farqi +/-
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	43,4	126,2	82,8
Gaz kondensati, ming t.	25,8	19,3	-6,5

yanvar fevral oylari yirik korxonalar boʻyicha


Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2061,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 115,4 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2021- yilning yanvar-fevral oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 21,5 % (19,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 1,5 % (0,9 %) va quyi texnologiyalisi – 43,8 % (43,0 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 12,6 % (2021- yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,8 %), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 27,8 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,1 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 21,4 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,8 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,1 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 138,6 %), mebel ishlab chiqarishning ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,3 %), ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *

Tabiiy qumlar




Gaz kondensati



Tabiiy gaz




Neft



Propan, Butan







Chaqiq tosh



* Yanvar-fevral oylarida yirik korxonalar bo‘yicha

Yumshoq bug'doy uni

Aroq

Uzum vinosi

Paxta tolasi

Paxta chigiti

Kalava ip


2022- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 23,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 93,4 %) ni, 5,2 ming tonna kalava ip (102,2 %) ni, 9,8 ming tonna paxta tolasi (48,8 %) ni hamda 435,3 ming ltri aroq mahsulotlari (111,6 %) ni, tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- fevral oylari	2022- yil yanvar- fevral oylari	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	24,9	23,3	-1,6
Paxta tolasi, ming t.	10,2	9,8	-0,4
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	0,7	0,5	-0,2


Yanvar-fevral oylarida yirik korxonalar bo'yicha

Metallurgiya sanoati

2021- yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 179,9 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 %, fizik hajm indeksi esa, 101,8 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 3,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 71,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 139,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 35,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 93,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 388,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 119,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 134,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 23,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 145,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 8,1 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 857,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yanvar-fevral oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 87,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 %, fizik hajm indeksi 97,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 35,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-fevral oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 19,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 106,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,0 % ni, fizik hajm indeksi 101,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 336,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-fevral oylarida mebel ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 105,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 5,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-fevral oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,04 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 92,3 % .


Shuningdek, 2022- yilning yanvar fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 176,8% ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.




Yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-fevral oylarida yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,01 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 62,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,01 % ni, fizik hajm indeksi 76,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 0,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-fevral oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 98,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 112,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 6,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish


2021- yil yanvar-fevral oylarida yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,02 % ni, fizik hajm indeksi esa 109,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,02 % ni, fizik hajm indeksi 144,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 0,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 776,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 25,1 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 113,7 % ga oshganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	2290,6	2165,9	-124,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	542,1	546,4	4,3

yanvar-fevral oylarida yirik korxonalar bo'yicha

Yanvar -fevral oylari

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-fevral	2022- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	1947,7	2351,5	403,8
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	7964,0	9813,2	1849,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 20,7 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar 23,2 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 556,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 18,0 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-fevral oylari

63,1%

2022- yil
yanvar-fevral oylari

67,7%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-fevral oylari

36,9%

2022- yil
yanvar-fevral oylari


32,3%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2021- yil yanvar-fevral oylarida 0,1 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 25,0 % ni va Yakkabog' tumani 8,0 % ni, Koson tumani 7,5 % ni, Chiroqchi tumani 7,4 % ni hamda Kitob tumani 7,3 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida tumanlarda o'sish sur'ati (102,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Qarshi shahri (110,1) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 25,9 % ni shuningdek, Yakkabog' tumani 8,1 % ni, Chiroqchi tumani 7,4 % ni, Kitob tumani 7,3 % ni tashkil etdi.



557,1 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-fevral

544,0 mlrd. so'm


2021- yil yanvar-fevral

556,0 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-fevral



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 20,5 % ni, Kitob tumaniga 9,4 %, shuningdek, Koson tumani 8,9 % ni, Chiroqchi tumani 8,7 % ni tashkil etdi.

179,4 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-fevral

200,6 mlrd. so'm


2021- yil yanvar-fevral

214,3 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-fevral



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 27,2 % ni, shuningdek, Yakkabog' tumani 9,4 % ni, Shahrisabz shaharga esa 8,6 % ni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyati tuman, shahar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nison tumaniga to'g'ri kelib, 23,9 % ni, shuningdek, G'uzor tuman 17,3 % ni, Qarshi shahar esa 13,1 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyat

2020- yil

2074,8 mlrd. so'm

2021- yil

2831,5 mlrd. so'm

2022- yil

3083,3 mlrd. so'm



2020- yil


96,5 %

2021- yil

117,8 %

2022- yil

105,1 %




FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (4690,7 ming so'm), G'uzor (2543,8 ming so'm), Qarshi shahri (1442,3 ming so'm), Muborak tumanida (1330,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (914,4 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

639,1 ming so'm

2021- yil

856,1 ming so'm

2022- yil

914,4 ming so'm



2020- yil

94,5%

2021- yil


115,3 %

2022- yil

103,1 %

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 713,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 23,1 % ni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

744,9 mlrd. soʻm

2021- yil

738,3 mlrd. soʻm

2022- yil

713,5 mlrd. soʻm



2020- yil

35,9 %

2021- yil

26,1 %


2022- yil

23,1 %

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 164,9 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida – 495,4 ming so'mni, Shahrisabz shahrida – 285,8 ming so'mni, Mirishkor tumanida – 252,9 ming so'mni va Nishon tumanida – 184,7 ming so'mni tashkil etdi.


Qashqadaryo viloyati



o'sish sur'ati
ming. so'm

Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4795 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 897 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,7 % i) Qarshi shahriga, 527 tasi (10,9 %) Kitob tumaniga, 444 tasi (9,3 %) Chiroqchi tumaniga, 429 tasi (8,9 %) Yakkabog' tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan

